

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.A.Yuldashev	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini gumanizatsiyalash masalalari	218
I.A.Asatulloev	
Alfred adler falsafasida qalb tushunchasining psixoanalitik tahlili	223
D.Sh.Sagdullayeva	
Ijtimoiy - siyosiy modernizatsiya jarayonining tarixiy ildizlari	228
S.S.Sodiqov	
Yoshlarda faol pozitsiyani shakllantirishning milliy-tarixiy asoslari	234
I.A.Hamdammov	
Mirzo Ulug'bek – temuriylar renessansi asoschisi	240
H.X.HAKIMOV	
Развитие социально экономических идей в трудах ученых энциклопедистов Узбекистана в период первого ренессанса	245
Q.H.Boymirzayev	
Abu Abdulloh Rudakiyning hayoti va faoliyat yo'li, uning Musulmon Sharqidagi ijtimoiy-madaniy muhitning shakllanishidagi o'rni	252
B.M.Qandov, N.A.Abdualieva	
Yangilanayotgan O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari	256
E.T.Qalqanov	
Vatanparvarlik madaniy hodisa sifatida ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari	261
Sh.X.Tog'ayev	
Yangilanayotgan O'zbekistonda o'zbek xalqi milliy g'ururini shakllantirishning manbalari va vositalari	266
I.A.Ikramov	
Jamiyat ijtimoiy hayotida ijtimoiy xotira va madaniy qadriyatlar strukturasi	272
V.B.Zayniddinova	
Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy-madaniy texnologiyalar strategiyasi	277
J.M.Miraxmedov	
Milliy o'zlikni anglash kontekstida tarixiy ongning gnoseologik tahlili	281
B.X.Mirzaraximov	
O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida turizm madaniyati rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillari	285
D.E.Normatova	
Ekzistensializm – hayot falsafasi	293

SIYOSAT

I.A.Raximov	
“Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining xavfsiz muhitni yaratishdagi o`ziga xos mexanizmlari”	297
M.H.Rustamaliyev	
Jamiyatni barqaror taraqqiyotini ta'minlashda siyosiy boshqaruvga ehtiyojning kuchayishi	302
N.B.Dexkanov	
Siyosiy piar (pr)ning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni	306
M.X.Baratov, R.T.Xakimov, B.T.Akramxodjaev	
Jahon Savdo tashkilotining tuzilishi, funksiyalari va faoliyat doirasi	312
J.K.Yusubov, F.X.Mustafoyeva	
Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishida jahon davlatlari tajribasidan foydalanish	323
J.K.Yusubov, D.A.Xusanova	
Ahloqan yetuk va fidoiy davlat fuqarolik xizmatchilarini tarbiyalash – mamlakat rivojining muhim omili	327

TARIX

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatida yog'-moy sanoatining shakllanishi tarixidan (XIX asr oxiri XX asr boshlari)	331



UO'K: 002.1.1.1:331.101.262.

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA YOSHLARNING EHTIYOJ VA MANFAATLARINI GUMANIZATSIYALASH MASALALARI**ВОПРОСЫ ГУМАНИЗАЦИИ ПОТРЕБНОСТЕЙ И ИНТЕРЕСОВ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА****ISSUES OF HUMANIZING THE NEEDS AND INTERESTS OF YOUTH IN AN INFORMED SOCIETY****Yuldashev Farrux Abduraxmanovich** 

Farg'ona davlat universiteti falsafa kafedrası o'qituvchisi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Annotatsiya

Tadqiqot maqsadi: Maqolada axborotlashuv sharoitida yoshlar faolligi, ulardagi ehtiyoj va manfaatlar uyg'unligini ta'minlashning gumanizatsiyalash va bu jarayonda axborotlashgan jamiyat va axborotlashuv jarayonining mazmun mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan. Tadqiqot metodlari: Dialektik, analiz va sintez, tarixiylik, solishtirish. Tadqiqot natijalari: Mavzuni o'rganish davomida ehtiyoj va manfaat tushunchalari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq qilingan holda yoshlar ehtiyoj va manfaatlarini gumanizatsiyalash masalalari o'rganilib, xulosa sifatida k'orsatib o'tildi.

Аннотация

Цель исследования: В статье описано возникновение потребностей и интересов человека в информационном обществе, его важные аспекты, факторы, цель и сущность. Методы исследования: Диалектика, анализ и синтез, историчность, наблюдение. Результаты исследования: В ходе изучения темы сопоставлены определения понятий потребности и интересы в исследованиях ученых и в словарях. В качестве вывода приведен социально-философский анализ конфликтов в обеспечении потребностей и интересов молодежи в информационном пространстве

Abstract

Purpose of the study: The article describes the emergence of human needs and interests in the information society, its important aspects, factors, purpose and essence. Research methods: Dialectics, analysis and synthesis, historicity, observation. Research results: During the study of the topic, the definitions of the concepts of needs and interests in the research of scientists and in dictionaries were compared. As a conclusion, a socio-philosophical analysis of conflicts in meeting the needs and interests of young people in the information space is given.

Kalit so'zlar: axborot, jamiyat, shaxs, ehtiyoj, manfaat, maqsad, ilm-fan, taraqqiyot, globallashuv, qadriyat, tafakkur, zaruriyat.

Ключевые слова: информация, общество, человек, потребность, интерес, цель, наука, прогресс, глобализация, ценность, мышление, необходимость

Key words: information, society, person, need, interest, goal, science, progress, globalization, value, thinking, necessity.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda "Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash" g'oyasi ostida uchinchi renessans poydevori barpo etilmoqda. Bu borada barcha sohalar, ilm-fan, madaniyat va san'atda yangilanishlar, ezgu ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Davlatimiz rahbari ta'kidlanganidek: "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi"[1]. Shu nuqtai nazardan maqolamizda axborotlashuv sharoitida yoshlar faolligi, ulardagi ehtiyoj va manfaatlar uyg'unligini ta'minlashning gumanizatsiyalash va bu jarayonda axborotlashgan jamiyat va axborotlashuv jarayonining mazmun mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan. Hozirgi paytda axborotlashuvning rivojlanish muammolarini o'rganish, tahlil etish ko'plab tadqiqotchi va mutaxassislarni o'ziga jalb etmoqda. Axborotlashgan jamiyatni barpo etish, axborotlashtirish jarayonlari, taxnika va texnologiyalarni isloh etishda barqarorlik hamda inson kamolotini yuksaltirish masalalariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'lib, mamlakatimizda yosh

FALSAFA

avlodga to'g'ri tarbiya berish, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va uning ma'naviy barkamol bo'lib voyaga yetishi haqida g'amxo'rlik qilish bosh vazifa hisoblanadi. Albatta ushbu jarayonlar hozirgi davrda axborot, xususan informatsion jamiyatning qonuniyatlari, omillari, muhim tomonlari bilan chambarchas bog'liq ravishda amalga oshirilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichida yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar sohibi bo'lgan, insoniylik xislatlarini o'zida namoyon etadigan komil insonni shakllantirish bosh maqsadimiz hisoblanadi. Inson tarbiyasining shakllanishi, muayyan ahloqiy me'yorlar, bilim, fan, mehnat va tajribalarning ortishiga turtki bo'ladi. Zero, "o'z vatanini, ona xalqini ravnaq toptirish uchun o'zini ayamadan mehnat qilish: bu – jasorat va mardlik, bu – ona yurtga muhabbat va sadoqat, bu – to'g'ri tarbiya va amaliy namuna demakdir"[2]. Shuningdek, bugungi axborotlashgan jamiyatda yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini mushtarakligini ta'minlashdagi muammolarni tadqiq etish ham muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.

Tadqiqotning maqsadi Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini gumanizatsiyalash masalalarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini gumanizatsiyalash masalasiga doir omillarni ochib berish;
- ehtiyoj va manfaatlar uyg'unligining konseptual asoslari, ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ochib berish;
- jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida ehtiyoj va manfaatlar uyg'unligini ta'minlashda praktsiologik tafakkurni shakllantirish yo'llarini asoslash;
- axborotlashuv sharoitida ehtiyoj va manfaatlar uyg'unligini ta'minlashning gumanizatsiyalash, ya'ni insoniylashtirish, axborotlarga insoniylik nuqtayi nazardan yondoshish yo'llarini asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Axborotlashgan jamiyat va axborotlashuv jarayonining mazmun mohiyatini, uning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish asosiy vazifa hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki bugungi kunda axborot resurslari davlatlararo to'qnashuv, geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonda milliy manfaatlarini himoya qilish, asrab-avaylash muhim ahamiyatga ega. Globallashuv sharoitida "Kim axborotni egallasa, o'sha dunyoni egallaydi"[3] degan shior tobora ijtimoiy voqelikka aylanmoqda. Hayotimizda axborot asri degan so'z ko'p qo'llanilmoqda. Lekin axborot boyigani sari insonning ma'naviyati kambag'allashmoqda. Axborot ilm olish uchun asos bo'lishi va bilimni kuchaytirishi kerak. Hozirgi cheksiz axborotga ega bo'layotgan yoshlar olim, yoki donishmand bo'layotganligini ko'rmaymiz. Shuning uchun manbalarda "Axborot parokanda bo'ladi, u ilm emas"[4] deb ta'kidlangan. Ta'kidlash kerakki, axborotlashuv jarayonida inson hayotida madaniyat va axborot o'rtasidagi o'zaro uzviy bog'liqlikni takomillashtirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda virtual borliqning salbiy va ijobiy ta'sirlarini, texnika-texnologiya, zamonaviy axborot vositalarining, xususan kompyuter odobi, kompyuter savodxonligi va kompyuter madaniyatini shakllantirish masalalarini o'rganish, tadqiq etish muhimdir. Bunday vaziyatda yoshlarning borliq, virtual olam bilan aloqadorligini e'tiborga olib ong, tafakkur, ratsional va xissiy yetukligi, o'zini boshqarishi masalasiga diqqat qaratish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda yoshlarning hayotiy ehtiyojlarini qondirib borish borasidagi yangi moddiy va ma'naviy ne'matlarni, ya'ni "shaxs intellektual salohiyatini muntazam ravishda yuksaltirib borish yangi taraqqiyot bosqichining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi"[5]. Insonning hayotiy faoliyati inson jamiyatiga xos bo'lgan o'z qonuniyatlariga ega bo'lgan muhitda amalga oshadi. Insoniyatning axborotlashgan jamiyat bosqichiga o'tishi tobora chuqurlashib borayotgan davrda yoshlar ma'naviyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli mafkuraviy tahdidlar ostida yashamoqda. Ma'lumki, XXI asrning jahonda hal qiluvchi omillari axborot va bilim bo'lgan axborotlashgan jamiyatning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Mazkur jamiyatning rivojlanish evolyutsiyasi bilim jamiyatidan tarmoqli jamiyatga, undan raqamli jamiyatga transformatsiyalanishi bilan ifodalanadi. Darhaqiqat, "industrial jamiyatning asosiy rivojlanish manbai – energetik manbalar, energiyani ishlab chiqarish, uni tarqatish imkoniyatlari mavjudligida bo'lsa, axborotlashgan jamiyatida bilim va axborot jamiyat rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi"[6]. Darhaqiqat, bugungi kunda bilim va axborotga asoslangan global axborotlashgan jamiyat shakllanmoqda. "Axborotlashgan jamiyat" atamasini dastlab 1969-yilda

Tokio texnologik universitetining professori Yu.Xayashi fanga kiritgan. Uning fikricha “moddiy mahsulot emas, axborotlashuv mahsuloti jamiyatning shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi kuchiga aylanadi”[7]. Keyinchalik F.Maxlup, D.Bell, I.Masuda, E. Toffler, P.Draker, M.Kastels va boshqalar axborotlashgan jamiyatga oid qarashlarni rivojlantirdi. Shu bilan birga rivojlangan davlatlarning axborotlashgan jamiyat konsepsiyalari qabul qilindi. S.Mol fikricha, “axborotlashgan jamiyatda insoniy qadriyatlar o’zgaradi”[8]. Axborot tushunchasi bugungi kunda global ahamiyat kasb etdi, ya’ni axborot xilma-xillikni aks ettirish degan ma’noda ham qo’llanilmoqda. Falsafiy jihatdan axborotlarni o’zida aks ettirish obyektiga ko’ra:

-tabiat (koinot, yer-suv, tuproq, o’simlik, xayvonot)

-jamiyat (odamlar, jamoat birlashmalari, davlatlar, ularning tuzilishi, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatlari)

-inson faoliyati (jismoniy va aqliy salohiyati, sog’ligi, ongi va tafakkuri, mentaliteti, moyilligi va boshqalar) kabi guruhlariga ajratiladi. O’z navbatida falsafaning metodologik ahamiyatidan kelib chiqib axborotlar umumiy, xususiy, alohida axborot tizimlariga bo’linadi.

Inson va jamiyatning hayotiy manfaatlarini himoya qilishda o’z navbatida axborot tahdidlaridan himoyalaniish muhim ahamiyatga ega. Axborot bugungi kunga kelib inson tafakkuriga ta’sir o’tkazuvchi, insoniyat hayoti va taqdirini yaxshi yoki yomon tomonga burib yuboruvchi “goh salbiy, goh ijobiy mohiyat kasb etuvchi vositaga aylandi”[9]. Shuning uchun yosh avlodga axborot tahdidlari xaqida ham tushuncha berish, “Axborot tahdidi – axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga xavf tug’diruvchi sharoit va omillar yig’indisi”[10] ekanligini tushuntirish lozim. Mamlakatimiz hukumati tomonidan qabul qilingan qaror va dasturlar axborotlashgan jamiyatga o’tishning iqtisodiy, huquqiy, texnologik jihatlariga e’tibor berilmoqda. Masalan, “Axborotlashtirish haqida”, “Elektron raqamli yozuv (imzo) haqida”gi qabul qilingan qonunlar va boshqa hujjatlar ana shu maqsadga xizmat qilmoqda.

NATIJA VA MUHOKAMA

Kishilarning jamiyatdagi axloqiy xatti-xarakatlari, yurish turishlari, yashash qoidalari, g’oyalar va xissiyotlari, va ularni inson ongida aks etishi bevosita axloqiy ong, axloqiy madaniyatga bog’liq. Axloqiy ong inson xarakteriga, tabiatiga singib, amaliy faoliyatda odob, bilim, e’tiqod, ixlos, vijdon va iymon kabi xislatlar asosida shakllanadi. Ta’kidlash kerakki axloq va odob ma’naviyatning mazmunini tashkil etadi. Inson va sotsial sinflarning o’zaro aloqadorligi, munosabatlari natijasida shuni ko’rish mumkinki, shaxs manfaati bilan jamiyat manfaatining mos kelishi inson omilining o’sishiga, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksalishiga olib keladi. Bu borada uyg’unlikning bo’lishi rivojlanish garovidir. Manfaatlarning mundarijasida nomutanosibliklarning mavjudligi, manfaatlarining kelishmovchiliklar va nizolar asosida paydo bo’lishi, ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlari o’rtasidagi uyg’unlikni buzadi. Buning oqibatida iqtisodiy parokandalik, ijtimoiy injiqlik, ma’naviy tanazzul vaziyati vujudga keladi. Ba’zan shaxs tomonidan amaldagi ijtimoiy manfaat inkor qilinish holati ham uchraydi. Shuning uchun ham manfaatlar mushtarakligi muammosi har qaysi jamiyat uchun ahamiyatlidir. Ijtimoiy va shaxsiy manfaatlar o’rtasidagi obyektiv uyg’unlikning bo’lishi - demokratik jamiyatning muhim belgilaridan hisoblanadi. Bunday uyg’unlik o’z-o’zidan shakllanib qolmaydi. Ijtimoiy jarayon, shaxs bilan jamiyat o’rtasidagi munosabatlar tartibga solinishi va idora qilinishi lozim. Har qanday ideal tuzumda ham shaxs va jamiyat manfaatlari o’rtasida nomuvofiqlik, ziddiyatlar paydo bo’lishi mumkin. Odamlarning shaxsiy ehtiyoji va manfaatlaridagi shakllanish holati, hayotiy mo’ljali, tajribasi, ruhiyatining yo’nalishi, tabiiyki, bir-birlaridan farqlanadi. Buning ta’sirida jamiyat va shaxs munosabatlarida nizoli holatlarning vujudga kelishi sharoiti va sabablari ham turli bo’ladi. Jamiyatda yoshlarning ehtiyojlarini aksiologik omil asosida ta’minlashda qadriyatlarga sodiqlik, ichki dunyoni o’stirish va rivojlantirish, o’ziga berilgan vakolat va imkoniyatlardan to’g’ri foydalanish kabi faktorlar asosida yuksaltiriladi. Ushbu tushunchalar alohida inson shaxsining o’z ichki imkoniyatlarini erkin namoyon qilishida muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga ijtimoiy farovonlik, ya’ni hayot kechirishning qulayligini ta’minlaydigan aholining xavfsizligini, xotirjamligini, sog’ligini, savodxonligi kabi ma’naviy ehtiyojlarini ta’minlash bilan bog’liq masalalarga ham katta e’tibor berilmoqda. Ma’naviyat va axloq moddiy hayotning in’ikosi, ijtimoiy ehtiyojning hosilasi sifatida jamiyatni harakatlantiruvchi kuchdir. Yuksak ma’naviyatli inson bilan ma’naviyati sayoz, hayotga munosabati yengil-yelpi kishilarning o’zaro farqli jihatlarini milliy g’oya va ma’naviyat tushunchalari orqali jamiyatimizdagi milliy-ma’naviy tiklanish va yuksalish, islohotlarning ma’naviy ahamiyatini yoshlarga tushuntirish bilan, bugungi kunda jahonda kechayotgan globallashtirish jarayonlari sharoitida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari

FALSAFA

naqadar dolzarblashgani va endi bu masalalar faqat milliy hududda chegaralanib qolmay, umumbashariy muammoga aylanayotganligiga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Bugun biz ma'naviy tarbiya masalasida aslo beparvo va loqayd bo'lishga haqqimiz yo'q. Bugungi kunda jahon miqyosida avj olib borayotgan ma'naviy va axloqiy jaholatga qarshi kurashish, yoshlarni ulardan himoya qilish, bilim, ma'rifatni yuksaltirish, ta'lim-tarbiyani uyg'un holda olib borish har bir insonning muhim vazifasidir.

Demokratik islohotlar fuqarolar muloqotni vujudga keltirish, ularni manfaatlarini ta'minlash tamoyili asosida olib borilishi zarur. Buning uchun birinchi navbatda axoli bilan ochiq muloqotlar tashkil etish, jamiyatda olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini, ahamiyatini insonlarga yetkazish, tushuntirish muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida yoshlar erkinlik va tashabbuslarini, mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi ishtirokini kengaytirish dolzarbdir. O'z navbatida borliq va olamdagi voqea, xodisalarga nisbatan loqaydlikka chek qo'yish, ogohlik, xushyorlik, shaxsiy pozitsiya, daxldorlik ko'nikmalarini oshirish davr talabidir. Sababi, hozirgi kunda ekstremizm, terrorizm, millatchilik, shovinizm, ma'naviy qashshoqlik, axloqsizlikni targ'ib qilish jiddiy mafkuraviy xavf sifatida namoyon bo'lmoqda. So'ngi yillarda bu borada intellektual va ommaviy axborot vositalaridan ham foydalanilmoqda. "Muayyan mafkuraviy poligonlarning muttasil tarqatayotgan axborotlaridagi yovuz va zararli g'oyalar oqimi, jangari filmlar, bolalarga mo'ljallangan buzg'unchi g'oyalar asosida ishlangan o'yinlar bunga misol bo'la oladi"[11]. Yoshlar ehtiyoj va manfaatlarini qonunlarni xurmat qilish, islohotlarning ijobiylikini ta'minlash, ijtimoiy turmushni o'stirish, xurfikrlilik va barqarorlikni ta'minlash kabi masalalar bilan bog'liqdir. O'z navbatida jamiyatda kuzatilayotgan turli salbiy illatlar, korrupsiya, jinoyatchilik, xuquqbuzarliklarni oldini olish, bu jarayonda yoshlarning o'rni masalasiga ham katta e'tibor berish, yoshlar o'rtasida huquqiy tarbiyani keng yo'lga qo'yish zarur. Jamiyatda xuquqiy ong va xuquqiy madaniyatning shakllanishi tarbiya va muhitga bevosita bog'liq.

XULOSA

Jamiyatimiz yosh avlodi o'z kelajagi va hayotdan ko'zlangan maqsadini aniq tushunishi, tasavvur etishi, jamiyat, oila, maxalla va xalqi uchun ezgulik qiladigan inson bo'lib yetishiga aloxida e'tibor berish talab etiladi. Yoshlik odoblaridan biri kelajakka umid bilan qarash va yetuk inson bo'lish uchun xarakter qilishdir. Yoshlarni yetuk inson etib shakllanishida ijtimoiy falsafiy bilimlarning imkoniyatlaridan foydalanish, falsafiy mushohada qilishga o'rgatish, to'g'ri fikrlash mahoratlarini o'stirishga erishish, bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik jamiyati sharoitida barkamol shaxsni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu jarayonda shaxsning ratsional, etik diniy, fiziologik komilligining konsentratsiyalashganligiga erishish, ma'naviy olamini milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida qaror toptirishi, ma'naviy hislatlarini keng doirada yuksaltirish talab etiladi. Barkamol avlod deganda, avvalo, aqlan va jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, axloq-odobli, iste'dodli va qobiliyatli yoshlar ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Bu borada yurtimizda yoshlarni mustaqil, erkin fikrlovchi, ma'naviyati yuksak, sog'lom turmush tarziga xos insoniy fazilatlar egasi qilib tarbiyalash borasida yuksak muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy harakatlaridandir. Ta'kidlash kerakki, bilim va ma'rifat indivini ruhiy kamolotga olib chiqadi, davlatni taraqqiy etishiga asos bo'ladi. Shunga asosan yoshlarning komillikka intilishida ta'lim va tarbiya sohasiga doir jarayonlarni, islohotlarni yuqori darajaga olib chiqish dolzarbdir. Jamiyat taqdiri, mamlakat taraqqiyoti, axoli farovonligi yosh avlodning ongi va tafakkurining yuksakligi bilan belgilanadi. Shunday ekan, bolalarimizning yurish-turishi, dunyoqarashi va qiziqishlarini doimo o'rganish lozim. Yoshlar har xil ta'sirlarga beriluvchan bo'lishini ularni yot va yov g'oyalar oqimiga qo'shilib ketmasligi uchun yoshlarning foydali mashg'ulotlar bilan band qilish, ularning mafkuraviy bandligini ta'minlash, kitob, adabiyotga, sport va turli kasb-xunarlariga jalb etish maqsadga muvofiq. Yangicha dunyoqarashni shakllantirish tizimida jamiyat va davlat hayotini modernizatsiyalashda paydo bo'lgan tamoyillardan biri – tadbirkorlik, ishbilarmonlik va shaxsiy tashabbusning o'sib borishi natijasida rivojlanayotgan yangi ijtimoiy guruh, ayniqsa, kichik, o'rta ijtimoiy qatlamning manfaatlarini va ma'naviy ehtiyojlari, ular faoliyatlaridagi fidoyilik, qanoatlilik kabi sifatlar, e'tiqod, g'oya va mafkura shakllanishining ma'naviy asosi ekanligi ham ilmiy nazariy ham amaliy jihatdan asoslanishi atroflicha o'rganilib, tahlil etilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Президент Ш. Мирзиёевнинг 2021 йил 19 январь куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоатташқилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилишида сўзлаган нутқи. Kup.uz.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 354.
3. Тўраев Ш. ва бошқалар. Миллий ғоянинг инновацион тарғибот технологиялари ва ёшларни ахборот-психологик хуружлардан ҳимоя қилишнинг замонавий усуллари. Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази. – Тошкент, 2016. – Б. 4.
4. Ҳайдаров Б. Инсоннома: ҳаёт, ҳайрат, ҳикмат. -Тошкент. “Tafakkur qanoti”, 2014. –Б. 130.
5. Сиддиқов И. Ёшларда интеллектуал маданиятни ривожлантириш: ижтимоий-фалсафий таҳлил. (Монография) -Фарғона, 2021. –Б. 113.
6. Ғаффарова Г. Ғ. Мураккаб тизимларда ахборот генерациясининг фалсафий-методологик асослари: Дисс.я фалс.ф.д. – Тошкент, 2019. –Б.185.
7. Яхшиликков Ж. Я., Муҳаммадиев Н. Э. Миллий ғоя – тараққиёт стратегияси. Монография. Тошкент. “Фан” 2017. –Б.342.
8. Моль С. Информационное воздействие в современном мире. –Москва: Крымский мост, 2004. Ст.484.
9. Муҳаммад Амин Яҳё. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя. –Тошкент: “Моварауннаҳр”, 2016. – Б. 206.
10. Ёзиева У. Ахборотлар таҳдидидан ҳимояланишнинг педагогик шарт-шароитлари: Монография. – Тошкент: “Akademnashr”, 2016. – Б.25.
11. Қурунов М. Бизни бирлаштирган ғоя. –Тошкент: Ғофур Ғулом нашриёти, 2016. –Б. 22.